

## QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Norturayev Mansurbek Obid o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

E-mail: [mansurbek.norturaev@gmail.com](mailto:mansurbek.norturaev@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20642554>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida hududlar eksport salohiyatini ikki barobarga oshirish va kichik biznes ulushini umumiy eksportda 35 foizgacha yetkazish vazifasi belgilangan. Qashqadaryo viloyati Respublikaning yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining 10,2 foizini, paxtaning 11,8 foizini va don mahsulotlarining 12 foizini ishlab chiqaradigan yirik agrar-sanoat hududidir. Shu bilan birga, viloyat eksport tarkibida kichik biznesning ulushi mamlakat o‘rtacha ko‘rsatkichidan past bo‘lib qolmoqda. Bu holat hududning haqiqiy eksport salohiyatidan to‘liq foydalanmaslikka olib kelmoqda.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining 2026-yil 20-yanvardagi rasmiy yillik press-relezi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda viloyat tashqi savdo aylanmasi 1 242,4 mln. AQSH dollariga yetdi, eksport hajmi 513,5 mln. AQSH dollarini, import hajmi esa 728,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Hisobot davrida 215,4 mln. AQSH dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etilgan. Ushbu strukturaviy disbalans sharoitida kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot muammosi.** Kichik biznes subyektlari eksport faoliyatini olib borishda asosan to‘rtta moliyaviy to‘siqqa duch keladi. Birinchidan, eksport-import operatsiyalari uchun banklar tomonidan taqdim etiladigan kredit liniyalari shartlari (garov ta‘minoti, foiz stavkasi, muddat) yirik korxonalariga moslashtirilgan: 2025-yilda Qashqadaryo viloyatidagi tijorat banklarining o‘rtacha kredit foiz stavkasi 20—22 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu kichik korxonalarining eksport rentabelligi (o‘rtacha 12—15 foiz) bilan mos kelmaydi. Ikkinchidan, “Uzbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi xizmatlari hududiy markazlarda yetarli darajada targ‘ib qilinmagan va uning mahsulotlari kichik biznes ehtiyojlariga moslashtirilmagan. Uchinchidan, eksport tushumlarini milliy valutaga aylantirishdagi kurs farqlari va konvertatsiya xarajatlari kichik korxonalar uchun nisbatan yuqori. To‘rtinchidan, eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kichik biznes subyektlarining bank xodimlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qiladigan ixtisoslashgan menejerlar tarkibi viloyat tijorat banklari filiallarida yetarli darajada shakllanmagan.

**Tadqiqot maqsadi.** Qashqadaryo viloyati kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilish, xalqaro tajribani o‘rganish va ularni Qashqadaryo viloyati sharoitiga moslashtirilgan amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili va nazariy asos.** Eksportni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari xorijiy iqtisodchilar tomonidan keng o‘rganilgan. R. Levine (1997) moliyaviy ravvojlantirish va iqtisodiy o‘rnatishdagi bog‘liqlikni asoslab, samarali moliyaviy vositachilik

tizimi eksport korxonalarining likvidlik ehtiyojini qoplashda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatib bergan. OECD (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda kichik va o'rta biznes uchun eksport moliyalashtiruvchi raqamli platformalar orqali soddalashtirilishi, hujjatlash xarajatlarini 40—60 foizgacha kamaytirish imkonini berishi tasdiqlangan. UNCTAD (2024) ma'ruzasida rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik eksportchilar uchun eksport-kredit garantiyasi (Export Credit Guarantee) tizimining ahamiyati ta'kidlangan.

**Tahlil va asosiy natijalar.** 2024-yildan 2025-yilga o'tish davrida Qashqadaryo viloyati eksport tarkibida sezilarli strukturaviy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sanoat tovarlari (asosan to'qimachilik xom ashyosi — ip kalava) ulushi 42,1 foizdan 27,0 foizga (217,9 mln. USD dan 138,5 mln. USD ga) keskin kamaydi. Bu pasayish to'qimachilik mahsulotlari eksportining 38,2 foizga qisqarishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar eksporti 14,0 foizdan 25,2 foizga (72,3 mln. USD dan 129,5 mln. USD ga, ya'ni 1,79 marotaba) ko'paydi. Mashinalar va transport asbob-uskunalar eksporti 2,4 mln. USD dan 17,0 mln. USD ga (7,1 marotaba), kimyoviy vositalar eksporti esa 0,5 mln. USD dan 1,3 mln. USD ga (2,4 marotaba) o'sgan.

Kichik biznes subyektlari uchun eng katta imkoniyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida ochilmoqda. 2025-yilda viloyatdan 155,8 ming tonna meva-sabzavot eksport qilinib, uning umumiy qiymati 111,1 mln. AQSH dollariga yetgan (jami eksportning 21,6 foizi). 2024-yilning shu davriga nisbatan meva-sabzavot eksporti 1,65 marotaba o'sgan. Eng sezilarli o'sish ko'rsatkichlari: olma eksporti 4 marotaba (606,9 ming USD), qurutilgan mevalar 2,4 marotaba (453,4 ming USD), uzum eksporti 191,4 foiz (15 082,8 ming USD), boshqa mevalar 189,3 foiz (16 125,8 ming USD), boshqa sabzavotlar 172,5 foiz (51 805,2 ming USD), pomidor 142,5 foiz (1 269,1 ming USD) va piyoz 139,0 foiz (10 723,7 ming USD). Bu yo'nalish kichik fermer xo'jaliklari va dehqonchilik kooperativlari uchun keng eksport imkoniyatini yaratadi.

Xizmatlar eksporti yo'nalishida ham ijobiy tendensiya kuzatilmoqda: 2025-yilda xizmatlar eksporti 12,5 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 52,2 foizga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibida boshqa tadbirkorlik xizmatlari (42,0 foiz), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (41,4 foiz) hamda boshqa xizmatlar (15,4 foiz) ustun ulushga ega. Bu kichik biznes uchun, ayniqsa, IT va konsalting sohalarida, sezilarli salohiyatni ifodalaydi.

Geografik konsentratsiya tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda Qashqadaryo viloyati eksportining 45,8 foizi atigi ikkita savdo sherigida — Rossiya (23,8 foiz) va Niderlandiya (22,0 foiz) — to'plangan. Yana to'rtta yirik hamkor (Afg'oniston 7,8 foiz, Tojikiston 7,3 foiz, Turkiya 7,0 foiz va Pokiston 6,9 foiz) qo'shilganda, top-6 mamlakatda umumiy eksportning 74,8 foizi qayd etiladi. Kichik biznes subyektlari uchun ushbu konsentratsiya muammosi yangi bozorlarni o'zlashtirishda qo'shimcha moliyaviy va institutsional yordamga ehtiyoj tug'diradi.

Eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlarining moliyaviy ehtiyojlari, mavjud bank mahsulotlari bilan to'liq qoplanmasligi qator institutsional sabablarga ega. Birinchidan, "Savdoga ko'maklashish jamg'armasi" (PQ-126-son qaror, 14.03.2024) mablag'laridan foydalanish murakkab hujjatlash tartibi va tasdiqlash muddatlari sabab kichik korxonalar uchun amaliy jihatdan kam qulay. Ikkinchidan, viloyat tijorat banklari filiallarida eksport kreditlash bo'yicha ixtisoslashgan menejerlar tarkibi yetarli darajada shakllanmagan. Uchinchidan, kichik biznes subyektlari uchun mo'ljallangan eksport sug'urtasi mahsulotlari narxi va shartlari ularning aylanma kapitali ko'lamiga mos kelmaydi. To'rtinchidan, eksport

faoliyati uchun zarur bo'lgan xalqaro hisob-kitob va akkreditiv operatsiyalari bo'yicha viloyatdagi tijorat banklari filiallarining vakolatlari cheklangan.

**Xalqaro tajriba.** Janubiy Koreyaning Korea Trade Insurance Corporation (K-SURE) modeli kichik va o'rta biznes eksportchilari uchun maxsus mahsulotlar tizimini ishlab chiqqan: tushum sug'urtasi, kredit garantiyasi va eksport oldi moliyalashtiruvi. Bu modelning samaradorligi natijasida Janubiy Koreyaning kichik va o'rta biznes ulushi eksportda 40 foizdan oshgan. Xitoyning Sinosure (China Export & Credit Insurance Corporation) modeli esa kichik eksportchilarga subsidiyalashtirilgan sug'urta mukofotlari (15—50 foizgacha chegirma) taqdim etadi. Yevropa Ittifoqida har bir mamlakatning Eksport-Kredit Agentligi (ECA) kichik biznes uchun sug'urtalangan eksport-kredit mahsulotlarini taklif qiladi. Ushbu xalqaro tajribadan O'zbekiston, xususan Qashqadaryo viloyati uchun, foydalanish imkoniyatlari mavjud.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan tahlil natijalariga ko'ra, Qashqadaryo viloyati kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

birinchidan, "Savdoga ko'maklashish jamg'armasi" doirasida Qashqadaryo viloyati uchun maxsus hududiy kvota ajratish (umumiy jamg'arma mablag'ining 8—10 foizi miqdorida) va kichik biznes subyektlari uchun hujjatlash tartibini soddalashtirish (3 ish kuni doirasida ko'rib chiqish, talab etiladigan hujjatlar sonini 12 dan 6 ga qisqartirish);

ikkinchidan, viloyat tijorat banklari filiallarida "bir oyna" tamoyili asosida ishlaydigan eksport-moliyaviy maslahat markazlarini tashkil etish va ularda eksport kreditlash, sug'urtalash, valuta operatsiyalari hamda xalqaro hisob-kitob bo'yicha xizmatlarni kompleks shaklda taqdim etish. Har bir markazda kamida 3—5 ta ixtisoslashgan menejer faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq;

uchinchidan, "Uzbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi tomonidan yillik aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan kichik biznes subyektlari uchun chegirmali (sug'urta mukofoti 50 foizgacha kamaytirilgan) eksport sug'urtasi mahsulotini joriy etish. Mahsulot kamida quyidagi xatarlarni qoplashi lozim: xaridorning to'lov qobiliyatini yo'qotish, siyosiy xatarlar, transport xatarlari;

to'rtinchidan, eksport tushumlarini majburiy konvertatsiya rejimini chetlab o'tib, kichik eksportchilar uchun valuta hisobvarag'ida 50 foizgacha mablag' saqlash imkoniyatini ta'minlash. Bu kichik eksportchilarga import qilinadigan xom ashyo va asbob-uskunalar uchun valuta resursini saqlash imkonini beradi;

beshinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining tez sur'atli o'sishi (2025-y. 1,65 marotaba) sharoitida zanjir kreditlash (supply chain financing) mexanizmlarini joriy etish — saqlash, qadoqlash, sertifikatlash va logistika bosqichlarini yagona kredit mahsuloti orqali moliyalashtirish. Mahsulotning asosiy parametrlari: muddat 12—36 oy, foiz stavkasi 8—10 foiz, garov ta'minoti — eksport shartnomasi;

oltinchidan, viloyat hokimligi huzurida "Eksport-tezkor markazi" (Export Acceleration Center) tashkil etib, unda Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJ vakillari ishtirokida eksport bilan bog'liq barcha hujjatlash va moliyaviy xizmatlarni "bir oyna" tamoyili asosida taqdim etish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi viloyatda kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatidagi ulushini joriy ko'rsatkichdan o'rta muddatda 2—2,5 baravarga oshirish imkoniyatini yaratadi va Qashqadaryo viloyati eksport tuzilmasini diversifikatsiyalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xizmatlar eksporti yo'nalishida kichik biznes subyektlarining ulushi sezilarli darajada ortishi mumkin, bu esa hududning umumiy eksport salohiyatini barqaror oshirish va xom ashyoga bog'liqlikni bosqichma-bosqich kamaytirishga olib keladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-martdagi PQ-126-son "Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda PQ-389-son "Qashqadaryo viloyatini 2024—2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 29-oktabrdagi O'RQ-499-son "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, lex.uz.
5. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Press-reliz: Qashqadaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi, 2025-yil yanvar—dekabr oylari uchun dastlabki ma'lumot. — Qarshi: qashstat.uz, 20.01.2026. — URL: <https://qashstat.uz/uploads/press26/TS-PR-UZ-12-2025.pdf>
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Tashqi savdo statistikasi 2024—2025-yillar. — Toshkent: stat.uz, 2026.
7. Levine R. Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda // Journal of Economic Literature. — 1997. — Vol. 35, No. 2. — P. 688—726.
8. OECD. Trade Finance for SMEs in the Digital Era. — Paris: OECD Publishing, 2023. — 84 p. — URL: <https://www.oecd.org>
9. UNCTAD. Trade and Development Report 2024: Rebuilding Global Confidence in a World of Crises. — New York and Geneva: United Nations, 2024. — 156 p. — URL: <https://unctad.org>
10. Tuxtabayev J.Sh. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi: o'quv qo'llanma. — Toshkent: Bookmany print, 2025. — 256 b.